

---

## Farg'ona shahridagi tekstil korxonalari qoshida o'quv jarayonlarini amaliyot bilan bog'lagan holda kasb-hunarga o'qitish kurslari tashkil etiladi

Viloyat hokimi Xayrullo Bozorov Farg'ona shahridagi "BS Textile" MChJ korxonasida bo'ldi. 2021 yil aprely oyida tadbirkor Ikromjon Vohidov tashabbusi bilan tashkil etilgan ushbu korxonada bugungi kunda 750 nafarga yaqin ishchi-xodimlar mehnat qilmoqda. Yillik 7 ming 200 tonna paxta tolasini qayta ishlab, ip-kalava, xom trikotaj mahsuloti hamda tayyor kiyimlar ishlab chiqarayotgan korxonada joriy yilning o'tgan sakkiz oyida qariyb 500 ming dona tayyor trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarildi. Bu o'tgan 2021 yilga nisbatan 3 barobar ko'pdir.

Hozirda korxonada qiymati 5 million dollar bo'lgan maxsus ustki kiyim-bosh ishlab chiqarish, shuningdek, matoga gul bosish loyihasi amalga oshirilmoqda. Joriy yil yakuniga qadar ishga tushirilishi ko'zda tutilgan ushbu liniyada qo'shimcha 500 ta ish o'rni yaratiladi.

2022-09-21 19:21:36